

mustahkamligini orttirish uchun ham qo'shiladi. Shu sababli ham avtomobil shinalari qop-qora rangda bo'ladi.

Hozirgi zamon industrial-texnologik sivilizatsiyamizning yirik ishlab chiqarish korxonalarini har kuni havoga minglab m<sup>3</sup> miqdorda is gazini chiqarib tashlamoqda. Xususan, bu jarayonda ko'chalarimizni to'ldirib yurgan minglab sondagi avtomobillarning ham ma'lum miqdordagi salmoqli ulushi bor. Avtomobil dvigatelida yonayotgan benzin yoki metan gazini dvigatelda to'liq 100% yonmaydi va avtomobil tutuni tarkibida, is gazini shaklida havoga chiqib ketadi. Ochiq havoda is gazini molekullari havoning o'zidagi kislorod atomlari bilan uchrashib, ularni o'ziga birlashtirib olishga kirishadi va natijada, nisbatan xavfsiz bo'lgan karbonat angidrid gazini hosil bo'ladi. Lekin, baribir is gazini butunlay yo'q bo'lib ketmaydi va u borgan sari yig'ilib borib, o'zi turgan havo muhitini aynitadi va undan nafas olgan odamlarga va jonivorlarga yomon ta'sir qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zoologiya H.X Xolmuratov Toshkent — 2008 yil.
2. Uglarod haqida ilmiy jurnallar ISSN:2181-2489 2021-yil
3. Internet ma'lumotlari [www.edu.uz](http://www.edu.uz) ,[www.google.uz](http://www.google.uz) saytlari.
4. [www.med360.uz](http://www.med360.uz) saytidagi Uglarod mavzusidagi qo'llanma.
5. [www.orbita.uz](http://www.orbita.uz) saytidagi ilmiy maqolalar.

## **EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

*Nazirtashova Roziya Mamadaliyevna, Tojiboyev Oybek Avazjonovich  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Insonning turli xil ishlab chiqarish va sanoatdagi ishlab chiqarishlari natijasida atrof muhitga turli chiqindilar chiqariladi. Chiqindilar (qattiq, gazsimon va suyuq) ning bir qismi atmosferaga, bir qismi suvga, yerga, o'simlik va hayvonot olamiga ta'sir etib, ma'lum vaqt davomida to'planib boradi.

Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Ular quyidagilar: issiqxona effekti, ozon teshigi va cho'llanish.

Issiqxona effekti. Dunyo bo'yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning tezlik bilan ortishi bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 milliard tonnani tashkil qilgan. Bu miqdor yil sayin tezlik bilan orta boshladi.

Dunyo bo'yicha havo harorati ortib borsa muzliklarning erishi va okean suvlarining issiqlik ta'sirida kengayishi kuzatiladi. XX asrda olimlarning hisobi bo'yicha okean sathi 17,5 santimetrga yuqorilagan. Amerika olimlarining taxminiga ko'ra 2100-yilga kelib Dunyo okeani sathi 1,4-2,2 metrga oshishi kuzatiladi. Bu okeanga yaqin joyda joylashgan ko'pchilik davlatlarning suv ostida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Ozon teshigi. XX asrning 50-yillaridan boshlab, havoda freon gazlarining miqdori ko'payganligi kuzatilgan. Bu gazlar 25 kilometr yuqorida joylashgan ozon qatlamini yemirmoqda. Ma'lumki, ozon qatlami zararli ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida ozon teshigi hosil bo'ldi. Mazkur teshikdan Yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli va dukkakli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri kasalliklariga chalinishlariga sabab bo'lishi isbotlangan.

1989-yil olimlar, mutaxassislar hamda davlat arboblari qabul qilgan Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasida 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni kamaytirishga doir ishlar belgilab berildi. Natijada so'nggi yillarda ozon teshigining maydoni qisqarib bormoqda.

Cho'llanish. Hozirgi kunda bu jarayon ya'ni hosildor yerlarning, yaylovlarning cho'lga aylanishi tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda. Tabiiy omillarga, asosan, qurg'oqchilik kiradi.

Hozirgi paytda inson faoliyati ta'sirida taxminan 9 million kvadrat kilometr maydonda cho'l zonasi hosil bo'lgan. Har yil taxminan 21 million gektar yer to'liq buzilib, cho'lga aylanib keladi. Har yili sug'orilayotgan hosildor yerlarning 6 million gektar maydoni ham cho'lga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «The Sixth Extinction: An Unnatural History» - Elizabeth Kolbern
2. «The Future of Life» - Edward O. Wilson
3. «The Ecology of Commerce: A Declaration of Sustainability» - Paul Hawken

### **YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA UGLEROD NEYTRALLIGIGA ERISHISH MUAMMOLARI**

*Muhomova Hayotxon, Nazirtashova Roziya Mamadaliyevna  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

Bugungi kunda atmosfera juda ayanchli ahvolda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Havoning ifloslanishi butun dunyo oldida turgan global muammo hisoblanadi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbaalar; atmosferada sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik o'zgarishlar tirik organizmlarga ta'sirini ko'rsatadi. So'nggi yillarda inson ta'sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o'zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o'zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Atmosferaning sun'iy ifloslanishiga: avtomobil transporti birinchi o'rinni 40%i, energetika sanoati ikkinchi o'rinni 20%i, korxonalar va tashkilot ishlab chiqarishi uchinchi o'rinni 14%i, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, maishiy kommunal xo'jaligi va boshqalar zimmasiga ifloslanishning 26%iga to'g'ri keladi. Yer sharining har xil mintaqalarining qayerida kimyoviy korxonalar ko'p bo'lsa atmosfera havosining ifloslanishi kuzatiladi. Masalan: Yaponiyada, AQShda, Yevropa, Rossiya, Tojikiston, Xitoy, respublikamizda esa Toshkent, Farg'ona, Chirchiq, Bekobod, Navoiy, Olmaliq kabi shaharlarni ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda, yer kurrasida xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda atmosferaga har yili 500 mln. tonna oltingugurt gazi, sulfat oksidi, azot oksidi, 6,5-7 mlrd. tonna karbonat angidrid chiqarilmoqda. Shuningdek, atmosferaning ifloslanishida va ko'plab kislorod sarflanishida samolyotlarning roli kattadir. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikadan Yevropaga uchib o'tganda 50- 100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya'ni buni 100 ming gektar o'rmonzordagi o'simliklar bir kunda chiqarib beradi, bir kosmik kemaning fazoga chiqishi uchun 16 km radiusda ozon qatlamini yemiradi.

Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog'lig'iga, qolaversa barcha jonzorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir kishi sutka davomida o'rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi. Havo tarkibidagi zararli chang, qurumlar, zararli gazlar kishi organizmida to'planib, oqibatda teri va ko'z kasalliklari, jigar sirrozi, qonbosimining ortishi, surunkali bronxit, nafas qisish va o'pka raki kabi kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bolalar o'rtasida umumiy kasallanishning ortishi qayd qilingan.

**Tahlil va natijalar:** Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p, so'nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib ketganini aytib o'tdi. Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo'ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlikning keskin pasayishi va ko'plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmush sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Prezidentimiz "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish, Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini, ishlab chiqilgan ssenariylarning har biri CO<sub>2</sub> emissiyasining turlicha yillik qisqarishini nazarda tutadi.

1. Optimistik ssenariy (2050-y) CO<sub>2</sub> chiqindilarining yillik qisqarishi 5,9 million tonnani tashkil qilishi zarur.
2. Bazaviy ssenariy (2060-y.) CO<sub>2</sub> chiqindilarining yillik qisqarishi 4,8 million tonnani tashkil qilishi zarur.